



HOFIZ BASIRNING “MAZHAR AL-AJOIB” ASARIDA
SUFIIY AYOLLAR TASVIRI

Feruza Xursanboyeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, magistrant

Email: fpirimqulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis Hofiz Basirning “Mazhar al-ajoib” asarida tasvirlangan sufiy ayollar obrazlari va ularning tasavvufdagi ruhiy-ma’naviy maqomi tahliliga bag’ishlanadi. Asarda ayol avliyolarning karomatlari, diniy va ijtimoiy vazifalari, shuningdek, jamiyat axloqiy hayotiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari ayollarning tasavvuf tarixida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Hofiz Basir, “Mazhar al-ajoib”, tasavvuf, gender tengligi, zohida, murshida

Аннотация: Данная тезисная работа посвящена анализу образов суфийских женщин, изображённых в произведении Mazhar al-ajoib, а также их духовно-нравственного статуса в суфизме. В произведении освещаются караматы (чудеса) женщин-авлия, их религиозные и общественные функции, а также влияние на нравственную жизнь общества. Результаты исследования показывают, что женщины играли важную роль в истории суфизма.

Ключевые слова: Hofiz Basir, Mazhar al-ajoib, суфизм, гендерное равенство, захида, муршида.

Abstract: This thesis examines the representation of Sufi women in Hafiz Basir’s “Mazhar al-ajoib”. It analyzes their spiritual rank, miracles, and their moral and social influence within Central Asian society. The research highlights the significant role of women in the history and development of Sufism.

Keywords: Hofiz Basir, Mazhar al-ajoib, Sufism, gender equality, zahida, murshida.



O'rta Osiyoda tasavvufiy adabiyot avliyolar hayoti va karomatlarini bayon etish orqali diniy-ma'naviy merosni shakllantirgan muhim manbadir. Hofiz Basir tomonidan yaratilgan "Mazhar al-ajoib" asari ayol avliyolarning ruhiy maqomi va tasavvufdagi ijtimoiy mavqeini yoritishi bilan e'tiborga loyiqdir. "Mazhar al-ajoib" asari o'z davrining ma'naviy hayotini, xususan, ayol avliyolarning ruhiy kamolotini, tasavvufdagi o'rni va ijtimoiy maqomini yoritib beruvchi muhim manbalardan biridir. Asarda ayol siymosining ma'naviy qudrati, ulug' insoniy fazilatlari hamda jamiyatda ezgulik g'oyalarini yoyishdagi o'rni alohida e'tibor bilan tasvirlanadi. Bu asar orqali muallif ayollarning nafaqat oiladagi, balki ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi faol ishtirokini ko'rsatadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ham ayollarning faolligi va teng huquqliligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida qayd etganidek, "Jamiyat taraqqiyotini, millatning buyuk kelajagini ayollarni qo'llab-quvvatlamasdan tasavvur qilib bo'lmaydi". Shu boisdan, "Mazhar al-ajoib" asarining bugungi kun gender tengligi tamoyillari bilan hamohang jihatlarini o'rganish ilmiy va ma'naviy jihatdan dolzarbdir. Mazkur tadqiqotda asarda tasvirlangan ayol avliyolarning ruhiy maqomi, ularning tasavvufdagi o'rni, ijtimoiy hayotdagi mavqei hamda bugungi zamon qadriyatlari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shu orqali o'tmish va bugun o'rtasidagi ma'naviy uzviylik, ayol sha'ni va martabasining tarixiy ildizlari yoritib beriladi.

Asarda ayollar Allohga yaqinlik (qurb)ka erishgan, karomatlar ko'rsatgan avliyolar sifatida tasvirlanadi. Muallif ayollarning ilohiy tajribalarini erkaklardan kam bo'lmagan darajada e'tirof etadi. Bu qarash tasavvufda ruhning jinsga bog'liqligi inkor etilishini ko'rsatadi. Asarda uchraydigan ayollar to'rt asosiy obrazga ajratiladi:

- 1) Zohida ayol — taqvo va parhezkorlik namunasi.
- 2) Murshida ayol — shogird tarbiyalovchi va ruhiy yetakchi.
- 3) Muqaddas ona — avliyolar nasabini davom ettiruvchi timsol.
- 4) Himoyachi ayol — duo orqali jamiyatni balo-ofatdan asrovchi

Ular jamiyat axloqiy me'yorlarini mustahkamlovchi, odamlarga umid va sabr



bag‘ishlovchi ruhiy quvvat sifatida talqin etiladi. Ziyorat joylarining mavjudligi bu obrazning tarixiy asosini kuchaytiradi.

Xulosa

“Mazhar al-ajoib” tasavvuf tarixida ayollarning faol ishtirokini tasdiqlovchi noyob manbalar sirasiga kiradi. Unda ayol avliyolar jamiyat ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi subyekt sifatida e’tirof etilgan. Bu asar hanuzgacha chuqur ilmiy tahlil etilmagan, uning g‘oyaviy-falsafiy qatlamlari, ayniqsa ayol siymolarining tasavvufdagi o‘rni keng yoritilmagan. Shuning uchun ham mazkur asarni tadqiq etish, undagi ayollar ruhiyati va ijtimoiy mavqeiga oid qarashlarni ochib berish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning faol ishtiroki, ularning salohiyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish — yurt taraqqiyotining garovidir.” “Mazhar al-ajoib” asarini ana shu yondashuv asosida o‘rganish, nafaqat tarixiy manbani ilmiy muomalaga kiritadi, balki ayol sha’ni va komilligini qadrlash, gender tengligi g‘oyalarini mustahkamlash yo‘lida ham muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.References(APA)
- 2.Bekjonov, I. (2020). O‘rta asr tasavvuf manbalarida ayol avliyolar. Toshkent: Yangi asr nashriyoti.
- 3.Hafiz Basir. (XVII asr). Mazhar al-ajoib qo‘lyozmasi. O‘zbekiston FA SHI, inv.№1783.
- 4.Mernissi, F. (1997). The Forgotten Queens of Islam. Minneapolis: University of Minnesota Press.